

**G.V.PLEXANOV NOMIDAGI ROSSIYA IQTISODIYOT
UNIVERSITETINING TOSHKENT SHAHRIDAGI FILIALI**

HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI

DSc.22/30.12.2019.I.100.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

**G.V.PLEXANOV NOMIDAGI ROSSIYA IQTISODIYOT
UNIVERSITETINING TOSHKENT SHAHRIDAGI FILIALI**

ISMOILOV SARDOR SAMIDULLAYEVICH

**RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA INSON KAPITALINI
BANK EKOTIZIMIGA TRANSFORMATSIYALASH**

08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферати диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in
economic sciences**

Ismailov Sardor Samidullayevich

Raqamlashtirish sharoitida inson kapitalini bank ekotizimiga
transformatsiyalash.....3

Исмаилов Сардор Самидуллаевич

Трансформация человеческого капитала в банковской экосистеме в условиях
цифровизации.....33

Ismailov Sardor Samidullayevich

Transformation of human capital in the banking ecosystem in the context of
digitalization.63

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....67

**G.V.PLEXANOV NOMIDAGI ROSSIYA IQTISODIYOT
UNIVERSITETINING TOSHKENT SHAHRIDAGI FILIALI**

HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI

DSc.22/30.12.2019.I.100.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

**G.V.PLEXANOV NOMIDAGI ROSSIYA IQTISODIYOT
UNIVERSITETINING TOSHKENT SHAHRIDAGI FILIALI**

ISMOILOV SARDOR SAMIDULLAYEVICH

**RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA INSON KAPITALINI
BANK EKOTIZIMIGA TRANSFORMATSIYALASH**

08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2025.3.PhD/Iqt6255 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent shahridagi filialida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-saytida (www.reu.uz) va “Ziyonet” axborot-ilmiy portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan

Ilmiy rahbar:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich
O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Rasmiy opponentlar:

Xudoyberdiev Zayniddin Yavkachevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raxmatullayeva Shaxnoza Xamidovna

iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD,
dotsent

Yetakchi tashkilot:

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika
universiteti**

Dissertatsiya himoyasi 2025-yil “_____” soat ____ dagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent shahridagi filiali huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.22/30.12.2019.I.100.01 raqamli Ilmiy kengashning majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100164, Toshkent sh., Mirzo Ulug‘bek tumani, SHaxriobod ko‘chasi, 3 uy Tel.: (99871) 262-43-50; faks: (99871) 262-43-60; e-mail: info@reu.uz

Dissertatsiya bilan G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent shahridagi filialining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100164, Toshkent sh., Mirzo Ulug‘bek tumani, Shaxriobod ko‘chasi, 3 uy Tel.: (99871) 262-43-50; faks: (99871) 262-43-60; e-mail: info@reu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “_____” kuni tarqatildi.
(2025-yil “_____” dagi _____ - raqamli reyestr bayonnomasi).

Usmanov A.S.

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi
o‘rinbosari, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

Shakarov Z.G.

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent.

Xudoyberdiyev Z.YA.

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori,
professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Jahonda raqamli va sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanib borishi sharoitida inson kapitali barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy omili ekanligiga ko'ra, mazkur kapitalni bank ekotizimiga samarali transformatsiyalash tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Deloitte hisobotiga ko'ra, "kompaniyaning jahon bo'ylab samarali faoliyatini ta'minlash hamda tez o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarga xodimlarni moslashishi va ish o'rinalarini yaratishni ta'minlashda xodimlarni yangi texnologiyalar, jumladan sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar va boshqa raqamli vositalar bilan ishslashga tayyorlash chora-tadbirlariga alohida e'tibor qaratilib, inson kapitalini rivojlantirish sarf-xarajatlari oshirilgan. Tadqiqotda 105 mamlakatdan ishtirok etgan 10 000 dan ortiq biznes rahbarlari fikriga ko'ra raqamlashtirish bugungi kunda ustuvor vazifaga aylangan"¹. Inson kapitali bank sektorining strategik resursi sifatida uning samarali rivojlanishi va boshqaruvi banklarning raqobatbardoshligi hamda barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishi nuqtai nazarida bugungi kunda jahonda inson kapitalini bank ekotizimiga samarali transformatsiyalashga dolzarb muammolardan biri sifatida qaralmoqda.

Jahonda bank sohasini samarali rivojlantirish yo'nalishidagi tadqiqotlar tarkibida raqamlashtirish sharoitida inson kapitalini bank ekotizimiga transformatsiyalashga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqotlarga ustuvor darajada qaralmoqda. Bu borada, jumladan, quyidagi yo'nalishdagi mavzular, tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda: bank ekotizimining raqamli transformatsiyasining bank infratuzilmasi, mehnat resurslarini boshqarish va bank xizmatlari sifatiga ta'sirini baholash uslubiyatini takomillashtirish; raqamlashtirish sharoitida bank xodimlari va ish beruvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning samarali modellarini ishlab chiqish; raqamli texnologiyalarning ish bilan bandlik tuzilmasi, mehnat munosabatlari va kasbiy ko'nikmalarga ta'sirini baholash uslubiyatini takomillashtirish; raqamlashtirishga ko'ra, inson kapitalini boshqarishning samarali strategiyalari, yondashuvlari va mexanizmlarini taklif qilish; kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning raqamli kompetensiyalari va tez o'zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashish ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha samarali mexanizmlarni asoslash.

Mamlakatimizda bank tizimini tubdan isloh qilish va modernizatsiyalash, bank ekotizimini raqamli transformatsiyalash hamda raqamli boshqaruvi infratuzilmasini rivojlantirish, raqamlashtirish sharoitida inson kapitalini rivojlantirish, bank sektoridagi davlat ulushini kamaytirish, masofaviy xizmatlarni keng joriy etish va nobank kredit tashkilotlarini rivojlantirish kabi yo'nalishlarda keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "Bank bilan hamkorlikda infratuzilmani modernizatsiya qilish, metallurgiya, to'qimachilik, kimyo sohalari va boshqa

¹ Deloitte. 2023 Global Human Capital Trends [Elektron resurs] //Deloitte Insights. – 2023. – URL: <https://www2.deloitte.com/content/dam/Deloitte/us/Documents/human-capital/us-deloitte-2023-hc-trends-information.pdf>

strategik tarmoqlarda istiqbolli loyihalar portfeli ishlab chiqish”² kabi vazifalar belgilangan. Bu borada raqamlashtirish sharoitida inson kapitalini bank ekotizimiga samarali transformatsiyalash yo‘nalishidagi tadqiqotlar ko‘lamin iyanada kengaytirish maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”, 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2020-yil 6-oktyabrdagi PQ-4851-son “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini iyanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 22-avgustdagi PQ-357-son “2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son “O‘zbekiston Respublikasini 2030-yilgacha “yashil” iqtisodiyotga o‘tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur tadqiqot ma’lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darjasи. Raqamlashtirish sharoitida bank ekotizimida inson kapitalining transformatsiyasi masalasi so‘nggi yillarda faol o‘rganilmoqda. Yangi texnologik chaqiriqlarga hamda bank xizmatlarining raqamli transformatsiyasiga kadrlarni moslashtirish muhimligini ta’kidlovchi ko‘plab tadqiqotlar mavjud. Inson kapitali rivojlanishini o‘rgangan klassik iqtisodchilar qatorida Adam Smit³ alohida tilga olinadi. U “Xalqlar boyligi” asarida iqtisodiy o‘sish uchun mehnat va ta’limning ahamiyatini birinchi bo‘lib alohida ta’kidlagan. Teodor Shuls⁴ va Gari Bekker⁵ ushbu g‘oyani rivojlantirib, ta’lim va sog‘liqqa investitsiyalar mehnat unumdarligi hamda farovonlikni oshirishini isbotlovchi inson

² Sh.M. Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy darajadagi Yevrosiyo iqtisodiy kengashining yig‘ilishidagi nutqi // Prezident.uz. – 27.06.2025. – Rejim: <https://president.uz/uz/lists/view/8271> – So‘ralgan sana: 22.07.2025.

³ A.Smith. *An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations*. Moscow: Ekonomika, 2018. – 960 p.

⁴ T.W. Schultz. "Investment in Human Capital" // *Economic Thought*. Moscow: Nauka, 2019. – Vol. 7. – pp. 42–53.

⁵ G.S. Becker. *Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis with Special Reference to Education*. Moscow: Higher School of Economics, 2003. – 520 p.

kapitali nazariyasini ilgari surdilar. Nobel mukofoti sovrindori Pol Romer⁶ endogen o'sish nazariyasiga sezilarli hissa qo'shdi, unda inson kapitali innovatsiyalar va texnologik taraqqiyotning markaziy omili sifatida qaraladi. Amartiya Sen⁷ ham rivojlanish masalalariga bag'ishlangan ishlarida inson kapitali ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlik uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko'rsatgan. Ushbu olimlar inson kapitali va uning iqtisodiy o'sish hamda rivojlanishga ta'siri bo'yicha zamonaviy yondashuvlarning asosini yaratdilar.

Raqamlashtirish sharoitida bank ekotizimida inson kapitali transformatsiyasini o'rganayotgan yetakchi xorijiy olimlar orasida Makedoniya universitetidan Mariya Kamariotou xodimlarning raqamli texnologiyalarga moslashuvini tadqiq qiladi.⁸ AQSHda Nobel mukofoti sohibi Pol Romer⁹ iqtisodiy o'sish va innovatsiyalarda inson kapitalining roliga doir tadqiqotlari bilan tanilgan. Evropada Elena Karletti¹⁰ va Xavier Vives¹¹ bank sektoridagi raqamli transformatsiya va uning bank biznes-modellariga ta'sirini o'rganadilar. Xitoyda Dapeng Sun va Jun Ma¹² raqamlashtirishning inson kapitalini to'plash jarayoniga ta'sirini, ayniqsa, shahar va qishloq hududlari kesimida, tahlil qilmoqdalar.

Raqamlashtirish sharoitida bank ekotizimida inson kapitalining transformatsiyasi muammosi bilan shug'ullanayotgan yetakchi rossiyalik olimlar orasida Lyubov Anatolevna Petrova¹³ bank tizimida biznes jarayonlari va muhitning raqamli transformatsiyasini chuqur o'rganib, raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini boshqarishga alohida e'tibor qaratadi. Galina Tuguskina va Vitaliy Dorofeev¹⁴ Rossiya va G'arb mamlakatlarida inson kapitali holatini taqqoslab, ta'lim tizimini rivojlantirish hamda kadrlarni qayta tayyorlash zarurligini ta'kidlaydilar. Irina Pecherkina¹⁵ esa qiymatga asoslangan yondashuv nuqtai nazaridan inson kapitalini boshqarishni tadqiq etib, raqamlashtirish sharoitida kapitalni boshqarishning yangi usullarini taklif qiladi. Bu tadqiqotlar Rossiyada raqamli texnologiyalarning inson kapitali va bank ekotizimi rivojlanishiga ko'rsatayotgan ta'sirini anglashga salmoqli hissa qo'shmoqda.

Inson kapitali rivojlanishi muammosi bilan shug'ullanayotgan yetakchi o'zbek olimlari safida akademik Kalandar Abduraxmonov alohida ajralib turadi. U

⁶ P.M. Romer. "Endogenous Technological Progress and Economic Growth" // *Economics of Knowledge*. Moscow: Delo, 2014. – pp. 89–112.

⁷ A. Sen. *Development as Freedom*. Moscow: New Publishing House, 2021. – 320 p.

⁸ M.Kamariotou, F.Kitsios. "Digital Transformation and Strategy in the Banking Sector: Evaluating the Acceptance Rate of E-Services" // *Journal of Open Innovation: Technology, Market, and Complexity*. – 2021. – Vol. 7, No. 3. – pp. 204.

⁹ P.M. Romer. Endogenous Technological Change // *Journal of Political Economy*. – 1990. – Vol. 98, No. 5, Part 2. – pp. 71–102.

¹⁰ E. Carletti, S. Claessens, X. Vives. The Bank Business Model in the Post-COVID-19 World // *Journal of Financial Stability*. – 2021. – Vol. 53. – pp. 100-189.

¹¹ X. Vives. Digital Disruption in Banking // *Annual Review of Financial Economics*. – 2019. – Vol. 11. – pp. 243 – 272.

¹² D.Sun, B.Yu, J.Ma. Research on the Impact of Digital Empowerment on China's Human Capital Accumulation and Human Capital Gap between Urban and Rural Areas // *Sustainability*. – 2023. – Vol. 15, No. 6. – pp. 5458.

¹³ Л.А Петрова. Цифровая трансформация и развитие человеческого капитала в банковском секторе // *Молодой ученый*. – 2020. – № 5. – С. 45-50. URL: <https://moluch.ru>

¹⁴ Г.Н.Тугускина, В.Д. Дорофеев. Исследование состояния человеческого капитала России // *Научное обозрение. Экономические науки*. – 2020. – № 3. – С. 33-42.

¹⁵ И.Ф. Печеркина. Человеческий капитал как объект менеджмента, ориентированного на стоимость // *Финансовый журнал НИФИ*. – 2020. – № 3. – С. 58-64.

inson kapitalini strategik boshqarish va uning mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri masalalariga katta e'tibor qaratmoqda. Akademik Saidaxror Gulyamov kadrlarni boshqarish va tashkiliy xulq-atvor yo'nalişlaridagi tadqiqotlari bilan tanilgan bo'lib, bu ishlarning barchasi raqamlashtirish sharoitida inson kapitalini rivojlantirish bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liq. Professor Nodira Zokirova inson kapitalining ijtimoiy qirralari va uning iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishdagi o'rmini o'rganadi. Professor Sanjar Goyipnazarov mehnat bozorining yangi shart-sharoitlariga, jumladan, raqamlashtirishga, ishchi kuchining moslashuvi masalalariga e'tibor qaratmoqda. Dotsent Aziz Magrupov esa inson kapitaliga investitsiyalar va ularning milliy iqtisodiyot taraqqiyotiga ta'sirini tahlil qiladi. Ushbu olimlarning ishlari, ayniqsa raqamli transformatsiya va iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida, O'zbekistonda inson kapitalini boshqarish nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shmoqda.

O'zbekistonda raqamlashtirish sharoitida bank ekotizimida inson kapitalini transformatsiya qilish muammosi hali kam o'rganilgan. Shu bilan birga, ushbu yo'nalişda yetakchi tadqiqotchilardan biri sifatida professor Gulnora Abduraxmanova qayd etiladi: u bank sohasida inson kapitaliga investitsiyalarni o'rganib, banklar faoliyati samaradorligini oshirish uchun raqamli ko'nikmalarini rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi.¹⁶

«Raqamlashtirish sharoitida bank ekotizimida inson kapitalining transformatsiyasi» mavzusi hozirgi paytda yetarlicha qamrovda o'rganilmagan va qo'shimcha ilmiy izlanishlarni talab etadi. Raqamli transformatsiyaning iqtisodiyotga, ayniqsa, bank sohasiga ta'siri katta bo'lishiga qaramay, mavjud tadqiqotlar, asosan, inson kapitalini boshqarish yoki raqamlashtirishning ayrim jihatlarinigina yoritadi. O'zbekiston bank sektorida raqamli texnologiyalar bilan inson resurslari rivojlanishi o'rtasidagi o'zarobog'liqlarni kompleks o'rganish yetarlicha shakllanmagan. Bank tizimlarini yangi sharoitlarga muvaffaqiyatli moslashtirish uchun texnik yechimlar bilan bir qatorda, inson kapitali rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini ham qamrab olgan chuqur va tizimli tadqiqotlar zarur.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent filiali ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga ko'ra FZ-5421033210-sonli "Milliy iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tizimi transformatsiyasining metodologik asoslari" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi raqamlashtirish sharoitida inson kapitalini bank ekotizimiga samarali transformatsiyalash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tijorat banklarida inson kapitalining ilmiy-nazariy jihatlarini hamda

¹⁶ Г.К. Абдурахманова. Инвестиции в человеческий капитал в банковской сфере // Архив научных исследований. – 2020. – № 15. – С. 112-120. URL: <https://ejournal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/2047>

banklarning raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishidagi ahamiyatini o‘rganish; raqamlashtirishning bank ekotizimiga ta’siri, xodimlarning mehnat ko‘nikmalarini va ish bilan bandlik tuzilmasidagi o‘zgarishlarni tahlil qilish; sun’iy intellekt, avtomatlashtirish va Big Data kabi texnologiyalarning tijorat banklarida inson kapitalini boshqarishga ta’sirini baholash; bank ekotizimini raqamlashtirish sharoitida samarali ishslash uchun zarur bo‘lgan inson kapitalini boshqarishning zamonaviy modellari va raqamli kompetensiyalarni tahlil qilish; raqamli transformatsiya natijasida yuzaga kelgan o‘zgarishlarga muvaffaqiyatli moslashish uchun tijorat banklarida inson kapitalini rivojlantirish va takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida tijorat banklarining raqamlashtirish sharoitida inson kapitalini transformatsiyalash faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmetini raqamli texnologiyalar, jumladan, sun’iy intellekt, avtomatlashtirish va katta ma’lumotlar kabi texnologiyalarning inson kapitalini boshqarish, mehnat ko‘nikmalarini o‘zgartirish va tijorat banklari faoliyatining tashkiliy-moliyaviy jarayonda yuzaga keladigan iqtisodiy-moliyaviy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tizimli va kompleks tahlil, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, so‘rov va intervyyu, guruhlash, mantiqiy fikrlash, korrelyatsiya, regreasion tahlil, taqqoslash, ekonometrik tahlil, ekspert baholash va prognozlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

inson kapitalini boshqarish strategiyalari va mexanizmlari raqamlashtirish sharoitida minimal hayotiy bank mahsulotini ishlab chiqish bo‘yicha taklif etilgan uchta asosiy bosqich va kasbiy o‘sishni rag‘batlantirish asosida iste’dodlarni boshqarish mexanizmi, mutaxassislarni ilg‘or moliyaviy texnologiyalar bilan ishslashga ichki tayyorlov tizimiga ko‘ra tayyorlash, bozor o‘zgarishlariga xodimlar moslashuvchanligini sinxron tarzda tayyorligini ta’minlash mexanizmiga ko‘ra takomillashtirilgan;

raqamli va sun’iy intellekt texnologiyalarini o‘zlashtirishni baholash bo‘yicha ko‘rsatkichlar tizimi taklif etilib, test va so‘rov kabilarga asoslangan holda raqamli ekotizimda ishslashda zaruriy ko‘nikmalarini egallash darajasini aniqlashga qaratilgan bank xodimlarining raqamli kompetensiyalarini baholash metodikasi ishlab chiqilgan;

raqamli transformatsiya sharoitida kadrlar malakasini oshirish bilan birga bank xizmatlari bozoridagi raqobatbardoshligini ta’minlashga yo‘naltirilgan kadrlar tayyorlash ichki tizimini yaratishning maqsadga muvofiqligi asoslanib, unga ko‘ra sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data), avtomatlashtirish va tahliliy faoliyat kabi raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirish bo‘yicha xodimlarni o‘qitish va qayta tayyorlash dasturlari taklif qilingan;

moliya bozori talablariga muvofiq holda bank xodimlarining raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda innovatsion rivojlantirishda g‘oyalar va tashabbuslarga undovchi qulay muhit yaratish asosida raqamli transformatsiya sharoitida banklarning yuqori raqobatbardoshligi va barqarorligini ta’minlashning

muhim omili bo‘lgan malakali kadrlarni saqlab qolish va jalb etish dasturi uslubiy va amaliy jihatdan asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari ular quyidagilardan iborat:

tijorat banklarida inson kapitalini boshqarish tizimini raqamlashtirishga moslashtirish, jumladan, xodimlarni o‘qitish va rivojlantirish dasturlarini joriy etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi;

raqamli transformatsiya sharoitida bank xodimlarining raqamli kompetensiyalarini baholash metodologiyasi taklif etilgan;

mehnat resurslarining moslashuvchanligini rivojlantirishda inson kapitalini boshqarishning innovatsion usullarini joriy etishning strategiyalari taklif etilgan;

muntazam vazifalarni avtomatlashtirish va tahliliy vazifalardan foydalanish orqali operatsion jarayonlarni optimallashtirish va xodimlar mehnat unumdorligini oshirish yuzasidan raqamli texnologiyalarni inson kapitalini boshqarish tizimiga integratsiyalash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

yangi moliyaviy texnologiyalarni joriy etish sharoitida banklarning raqobatbardoshligini oshirish yuzasidan xodimlarning mehnat ko‘nikmalarini rivojlantirish va o‘zgartirish orqali bank muassasalari barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirish chora-tadbirlari taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, O‘zbekiston Markaziy banki va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi kabi tashkilotlarning ma’lumotlaridan foydalanilgani, bank tizimida inson kapitalini samarali boshqarishga raqamli texnologiyalarning ta’siri haqida keng ma’lumotlar taqdim etilgani, O‘zbekiston tijorat banklarida, jumladan “Kapitalbank”, “Uzumbank” va “Ipoteka Bank”da kadrlar boshqaruvini optimallashtirish bo‘yicha tavsiyalarini tahlil qilish va ishlab chiqishda foydalanilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taklif va tavsiyalar raqamlashtirish sharoitida bank ekotizimida inson kapitali transformatsiyasining nazariy modelining ishlab chiqilishi hamda raqamli texnologiyalarning bank sektoridagi ish bilan bandlik tuzilmasi va mehnat ko‘nikmalarining o‘zgarishiga ta’siri haqidagi ilmiy tushunchani kengaytirishga, bank institutlarining raqobatbardoshligini oshirishga yordam beruvchi raqamli transformatsiya sharoitida uni moslashtirish va rivojlantirishga yangi yondashuvlarni taklif qilish orqali inson kapitalini boshqarish nazariyasini rivojlantirishga hissa qo‘shgani bilan belgilanadi.

Natijalarning amaliy ahamiyati inson kapitalini boshqarish bo‘yicha taklif etilgan tavsiyalar va modellar «Kapitalbank», «Uzumbank» va «Ipoteka Bank» kabi yirik tijorat banklari amaliyatga joriy etilgani hamda bank xodimlarini boshqarish jarayonini takomillashtirish, ularning raqamli vakolatlarini rivojlantirish, samaradorlikni oshirish va inson kapitalini boshqarish bilan bog‘liq xarajatlarni kamaytirishga xizmat qilgani hamda bu natijalardan boshqa tarmoqlarda ham foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Raqamlashtirish sharoitida inson kapitalini bank ekotizimiga samarali transformatsiyalash bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

inson kapitalini boshqarish strategiyalari va mexanizmlari raqamlashtirish sharoitida minimal hayotiy bank mahsulotini ishlab chiqish bo‘yicha taklif etilgan uchta asosiy bosqich va kasbiy o‘sishni rag‘batlantirish asosida iste’dodlarni boshqarish mexanizmi, mutaxassislarini ilg‘or moliyaviy texnologiyalar bilan ishlashga ichki tayyorlov tizimiga ko‘ra tayyorlash, bozor o‘zgarishlariga xodimlar moslashuvchanligini sinxron tarzda tayyorligini ta’minlash mexanizmiga ko‘ra, takomillashtirish taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son “O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini 2020–2025-yillarda isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni 2-ilovasining 6-bandи “Kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish”da foydalanilgan (Kapital bankning 2024-yil 19-dekabrdagi I-07-7719/P-24-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu taklif xodimlarning yangi texnologiyalarni o‘zlashtirishda moslashuvchanligini 15%, mehnat unumdorligini 12% va mijozlar ehtiyojini qondirishni 18% oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

raqamli va sun’iy intellekt texnologiyalarini o‘zlashtirishni baholash bo‘yicha ko‘rsatkichlar tizimi taklif etilib, test va so‘rov kabilarga asoslangan holda raqamli ekotizimda ishlashda zaruriy ko‘nikmalarni egallash darajasini aniqlashga qaratilgan bank xodimlarining raqamli kompetensiyalarini baholash metodikasi bo‘yicha taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son Farmonida foydalanilgan (Kapital bankning 2024-yil 19-dekabrdagi I-07-7719/P-24-sonli ma’lumotnomasi). Taklif bank xodimlari raqamli ko‘nikmalar bo‘yicha o‘rtacha ballini 25%, mijozlar ehtiyojini qondirish darajasini 20% oshirishga va mijozlar so‘rovlарini ko‘rib chiqish vaqtini 18% kamaytirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

raqamli transformatsiya sharoitida kadrlar malakasini oshirish bilan birga bank xizmatlari bozoridagi raqobatbardoshligini ta’minlashga yo‘naltirilgan kadrlar tayyorlash ichki tizimini yaratishning maqsadga muvofiqligi va unga ko‘ra sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data), avtomatlashtirish va tahliliy faoliyat kabi raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirish bo‘yicha xodimlarni o‘qitish va qayta tayyorlash dasturlari bo‘yicha taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-avgustdagi PF-109-son “Faktoring xizmatlari bozorini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida foydalanilgan (Kapital bankning 2024-yil 19-dekabrdagi I-07-7719/P-24-sonli ma’lumotnomasi). Taklif maslahatchilar xarajatlarini 25%, raqamli vositalar bilan ishlashdagi xatoliklarni 20% qisqartirishga va xodimlarning raqamli moslashuvga jalb etilishini 35% oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

moliya bozori talablariga muvofiq holda bank xodimlarining raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda innovatsion rivojlantirishda g‘oyalar va tashabbuslariga undovchi qulay muhit yaratish asosida raqamli transformatsiya sharoitida banklarning yuqori raqobatbardoshligi va barqarorligini ta’minlashning muhim omili bo‘lgan malakali kadrlarni saqlab qolish va jalb etish bo‘yicha uslubiy-amaliy jihatdan asoslangan dasturiy ta’midot bo‘yicha taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son “O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini 2020–2025-yillarda isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida foydalanilgan (Kapital bankning 2024-yil 19-dekabrdagi I-07-7719/P-24-sonli

ma'lumotnomasi). Taklif xodimlarning raqamli malakasini 25%, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini 15%, onlayn tranzaksiyalarni 30% oshirish va tez o'zgarishlar sharoitida banklar barqarorligini mustahkamlashga muayyan darajada xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalar 5 ta xalqaro va 5 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 3 ta ilmiy maqola, shundan 2 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, 177 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti belgilangan, ishning respublikadagi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangilik va tadqiqot natijalarining amaliyotdagi ahamiyati olib berilgan, shuningdek, tadqiqot natijalarining joriy etilganligi haqida ma’lumotlar, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobি bank ekotizimida raqamlashtirish sharoitida inson kapitali transformatsiyasining konseptual asoslarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Banklar uchun asosiy strategik resurs sifatida inson kapitali bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarning yig‘indisi bo‘lib, tashkilotning tez o‘zgaruvchan bozor sharoitiga moslashish qobiliyati hamda raqobatbardoshligini saqlab qolish imkoniyatini belgilaydi. Raqamlashtirish inson kapitaliga jiddiy ta’sir ko‘rsatib, xodimlarga qo‘yiladigan professional talablarni o‘zgartiradi va ta’lim hamda qayta tayyorlashga strategik investitsiyalar zarurligini rag‘batlantiradi.

Inson kapitalini rivojlantirish hozirgi bank tizimida ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi, chunki yuqori malakali va motivatsiyalangan xodimlar tavakkalchiliklarni samarali boshqarish, innovatsion mahsulotlar yaratish va mijozlarga yuqori darajada xizmat ko‘rsatish imkoniyatiga ega. Banklarning raqamli biznes-modellarga o‘tishi sharoitida inson kapitali bilan boshqaruv strategik rejalshtirishning ajralmas qismiga aylanmoqda.

Inson kapitali transformatsiyasining asosiy nazariy tamoyillari Geri Bekker va Teodor Shuls kabi olimlar tomonidan asoslab berilgan bo‘lib, ular ta’lim va sog‘liqqa investitsiya kiritish orqali mehnat unumdarligini oshirish hamda iqtisodiy o‘sishni ta’minalash muhimligini ta’kidlaganlar.

I-jadval

Inson kapitalini o‘rganishda xorijiy olimlarning hissasi¹⁷

Yo‘nalish	Olim	Asosiy g‘oyalar
Ta’lim va rivojlanish	Jeyms Xekman	Ta’limga erta investitsiya kiritish – uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishning asosidir
Raqobatbardoshlik va innovatsiyalar	Laura Tayson	Inson kapitaliga investitsiyalar bank sektorida innovatsiya va samaradorlikni rag‘batlantiradi
Globalashuv va mutaxassislar migratsiyasi	Richard Friman	Banklarning raqobatbardoshligini saqlash uchun iqtidorli kadrlarni ushlab qolish va “intellektlar oqimi”ni oldini olish
Raqamlashtirish va sun’iy intellekt	Syuzanna Lund	Mehnat unumdarligini oshirish uchun xodimlarni II va avtomatlashtirishni qo‘llashga tayyorlash
Sog‘liq va mehnat unumdarligi	Sidni Blum	Xodimlar sog‘lig‘ining mehnat unumdarligi va banklar samaradorligiga ta’siri

Hozirgi raqamlashtirish sharoitida inson kapitali roli ortib bormoqda, chunki xodimlar yangi texnologiyalarga moslashishi talab etilmoqda. Jeyms Xekmanning tadqiqotlari bank sohasida muvaffaqiyatli faoliyat uchun zarur bo‘lgan

¹⁷ Муаллиф томонидан тадқиқот асосида тузилган.

ko‘nikmalarni shakllantirishda erta ta’limga investitsiya kiritish muhimligini ko‘rsatadi. Laura Tyson inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan investitsiyalar banklarda innovatsiya va raqobatbardoshlikka bevosita ta’sir qilishini ta’kidlaydi.

Raqamlashtirish bank xodimlaridan yangi ko‘nikmalarni – katta ma’lumotlar tahlili, loyihalarni boshqarish, sun’iy intellekt texnologiyalarini qo’llashni o’zlashtirishni talab qiladi. Richard Friman yuqori malakali mutaxassislarining migratsiyasi va “intellektlar oqimi” masalasiga e’tibor qaratadi, bu ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar banklari uchun dolzarbdir. Bu holat bank sohasida iqtidorli kadrlarni jalb qilish va ushlab qolish uchun zarur sharoitlarni yaratish ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

Raqamlashtirish bank ekotizimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatib, inson kapitalini boshqarish va yangi texnologiyalarni joriy etish borasida an’anaviy yondashuvlarni o’zgartirmoqda. Sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar va avtomatlashtirishdan foydalanish banklardan ish uslublarini yangilash va xodimlarni o’qitishda strategik yondashuvni talab qilmoqda. Bu esa barcha darajadagi xodimlar uchun qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimlarini yaratish zarurligini yuzaga keltiradi. Banklar o’zlarini o’zgaruvchan bozor muhitiga tez moslashtirish va raqobatbardoshligini saqlab qolish maqsadida fintex kompaniyalar bilan faol hamkorlik qilmoqdalar.

Zamonaviy texnologiyalar banklarga nafaqat ichki jarayonlarni takomillashtirish, balki mijozlarga yangi va shaxsiylashtirilgan xizmatlarni taklif etish imkonini ham beradi. Raqamli platformalarga o’tish tashkiliy madaniyatni o’zgartirishni, ishning yengil va moslashuvchan shakllarini joriy etishni hamda fintex va startaplar kabi bozorning turli ishtiokchilari bilan hamkorlikka asoslangan ekotizimli modellarga o’tishni talab qiladi.


1-rasmda bank tizimining raqamli transformatsiyasining asosiy bosqichlari aks ettirilgan sun’iy intellektni joriy etishdan tortib, moslashuvchan va adaptiv operatsion modellargacha bo’lgan jarayon. Bu banklar qanday qilib ilg’or texnologiyalar yordamida samaradorlikni oshirishi va xarajatlarni kamaytirishi mumkinligini namoyon etadi.

Raqamli transformatsiya bank sohasida xodimlarning mehnat ko‘nikmalariga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar va avtomatlashtirish kabi texnologiyalarni joriy etish xodimlar malakasi va kasbiy tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablarni qayta ko‘rib chiqishni talab qilmoqda. Bu jarayonda nafaqat kasbiy vazifalarning o’zi, balki kundalik mehnat faoliyati mazmuni ham o’zgarmoqda, bu esa yangi kasblarni yaratish va mavjud lavozimlarni yangi reallikka moslashtirish zarurligini yuzaga keltirmoqda.

Asosiy muammolardan biri – xodimlarni ommaviy ravishda qayta tayyorlash va raqamli o’zgarishlarga moslashuv bo‘yicha samarali strategiyalarni shakllantirish zaruriyatidir. Bunday sharoitda inson kapitalini rivojlantirish kasbiy o’sishni rag’-batlantirish, raqamli savodxonlikni shakllantirish va yangi kompetensiyalarni o’zlashtirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Bu salohiyatga loyiha boshqaruvi, ma’lumotlarni tahlil qilish hamda sun’iy intellekt asosidagi tizimlar bilan ishlash ko‘nikmalari kiradi. Faqat shu tarzda bank muassasalari bozordagi transformatsiyalarga tezkor javob berib, raqobatbardoshligini saqlab qolishi mumkin.

O'sish omillari:

- Bank sektori tomonidan moliyaviy texnologiya vositalarini joriy etishga tezkor javob berish
- Mijozlarga xizmat ko'rsatishda kompleks yondashuv



1-rasm. Moliyaviy texnologiyalarni joriy etish orqali bank ekotizimini transformatsiya qilish mexanizmi¹⁸.

Bunday maqsadlarga erishish uchun xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimlariga faol investitsiya kiritish talab etiladi. Ayniqsa, xodimlarni real vaqtdagi o'zgarishlarga moslashishi va doimiy kasbiy o'sishini ta'minlaydigan uzlusiz ta'lim tizimini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Samarali ta'lim infratuzilmasi raqamli transformatsiya davrida banklarning barqarorligini ta'minlaydigan strategik resursga aylanadi (2-rasm).

Raqamlashtirish sharoitida inson kapitali transformatsiyasi zamonaviy banklar uchun eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarni samarali joriy etish uchun xodimlar salohiyatini rivojlantirishga tizimli ravishda investitsiya kiritish, ularni yangi ko'nikmalarga o'rgatish va kasbiy o'sishlari uchun sharoit yaratish zarur.

Banklarning raqamli transformatsiyasi boshqaruvga bo'lgan yondashuvlarni o'zgartirishni, yangi tashkiliy modellarni joriy etishni va fintex-kompaniyalar bilan hamkorlikni mustahkamlashni ham talab qiladi. Bunday chora-tadbirlar banklarga o'zgarishlarga moslashish bilan birga, faol rivojlanish va raqobatbardoshligini saqlab qolish imkonini beradi.


Ikkinchi bobda bank tizimidagi raqamli transformatsiyaning zamonaviy yo'nalishlari tahlil qilinadi. Raqamlashtirish asosiy biznes-jarayonlarni avtomatlashtirish, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlardan foydalanish, shuningdek, robotlashtirilgan avtomatlashtirish (RPA) texnologiyalarini joriy etishni o'z ichiga oladi. Ushbu texnologiyalar operatsiyalarni tezlashtiradi va inson resurslarini

¹⁸ Muallif tomonidan tadqiqot asosida tuzilgan.

murakkabroq vazifalar uchun bo‘shatish imkonini yaratadi.

25 ta ko‘nikmaning evolyutsiyasi

Qisqarish  O‘sish




2-rasm. Bank sektorida ko‘nikmalar evolyutsiyasi: 2030-yilgacha prognoz¹⁹.

Alovida e’tibor mijozlarga xizmat ko‘rsatish jarayonlarini raqamlashtirishga qaratilgan. Mobil ilovalar va onlayn-banking mijozlarga bank xizmatlaridan bo‘limlarga bormasdan foydalanish imkonini beradi. Sun’iy intellekt xizmatlarni shaxsiylashtirish va ularning sifatiga ta’sir etish orqali mijozlar sodiqligini oshirishga yordam beradi.

Kiberxavfsizlik va ma'lumotlar himoyasi raqamli transformatsiyaning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Banklar tranzaksiyalarning xavfsizligini ta’mirlash maqsadida shifrlash va biometrik autentifikatsiyani joriy etmoqdalar. Kiber himoya tizimlari ma'lumotlar oqib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik va raqamli bank xizmatlariga mijozlar ishonchini oshirish imkonini beradi (3-rasm). Masofaviy bank xizmatlari mijozlarga istalgan joydan moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beradi. O‘zbekistonda 2024-yil holatiga ko‘ra, masofaviy xizmatlardan foydalanuvchilar soni 30 million nafarga etdi, bu esa raqamli servislarning jadal rivojlanayotganini ko‘rsatadi. P2P-to‘lovlar, mikrokreditlar va boshqa xizmatlarni mobil ilovalar orqali joriy etish mijozlar tajribasini yaxshilaydi hamda banklarning

¹⁹ Muallif tomonidan quyidagi manba asosida tuzilgan: J.Bughin, E.Hazan, S.Lund, P.Dahlström, A.Wiesinger, A.Subramaniam. The race to deploy generative AI and raise skills. McKinsey & Company, 2024. URL: <https://www.mckinsey.com>

operatsion xarajatlarini kamaytiradi.



3-rasm. 2024-yil uchun bank tizimida raqamli transformatsiyaning asosiy yo'nalishlari²⁰.

Kommersiya banklarining inson kapitalini rivojlantirishga qilgan xarajatlari tahlili Accenture va Deloitte kabi etakchi tahlil kompaniyalari ma'lumotlariga asoslangan. Accenturening 2023-yildagi hisobotiga ko'ra, yirik tijorat banklari, ayniqsa raqamli ko'nikmalar sohasida, kadrlar salohiyatini oshirishga bo'lgan xarajatlarini, taxminan, 5,0–7,0% ga oshirgan. Bu holat banklarning, taxminan, 80,0% i malakali mutaxassislar yetishmasligi muammosiga duch kelayotgani va bu innovatsiya hamda raqamli yechimlarni joriy etish sur'atini sekinlashtirayotgani bilan bog'liq.

Deloitte hisoboti ham bank sohasida inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan xarajatlar ortib borayotganini tasdiqlaydi. 2023-yilda so'rovda ishtirok etgan banklarning 68,0% i o'z investitsiyalarini, asosan, xodimlarni yangi raqamli ko'nikmalar va ma'lumotlar bilan ishlash bo'yicha o'qitishga yo'naltirganini qayd etdi. Buning natijasida tashkilotlar faqat ish samaradorligini oshirishni emas, balki tez o'zgaruvchi texnologik sharoitlarga moslashishni ham maqsad qilmoqda (2-jadval).

2021 yilda barcha ko'rsatkichlar bo'yicha o'sish kuzatildi: xodimlarning ish jarayonida ishtirok etish darajasi 60,0% gacha oshdi, texnologiyalarni joriy etish 35,0% ni tashkil etdi, innovatsiyalar o'sishi 20,0% gacha yetdi, o'qitilgan xodimlar ulushi 40,0% ga ko'tarildi, xodimlar qoniqish darajasi esa 60,0% darajasida saqlanib qoldi.

2022-yilda o'sish davom etdi: xodimlarning ishtirok darajasi 65,0% gacha etdi, texnologiyalarni joriy etish 50,0% ni tashkil etdi, innovatsiyalar o'sishi ham 50,0% gacha ortdi. Biroq o'qitilgan xodimlar ulushi 30,0% gacha kamaydi, xodimlar qoniqish darajasi esa 65,0% darajasida qoldi.


²⁰ Muallif tomonidan quyidagi manba asosida tuzilgan: Deloitte United States. Banking industry outlook 2024. [Электрон ресурс] // Deloitte Insights. URL: <https://www2.deloitte.com>

Kommersiya banklari tomonidan inson kapitalini rivojlantirishga qilingan xarajatlarning 2023-2024-yildagi asosiy ko‘rsatkichlari²¹

Ko‘rsatkich	2023-yildagi ma’lumotlar (%)
Inson kapitalini rivojlantirishga qilingan xarajatlarning o‘rtacha o‘sishi	5,0–7,0
Raqamli ko‘nikmalarga o‘qitishga investitsiyalarning oshishi	68,0% banklar xarajatlarni oshirgan
Innovatsiyalarni joriy etishdagi asosiy to‘siqlar	80,0% banklar malakali kadrlar etishmasligiga duch kelmoqda
2022-yilda xarajatlarning kutilgan keyingi o‘sishi	Mutaxassislarni o‘qitish va jalb etishga xarajatlar o‘sishi davom etadi

Ushbu ma’lumotlar shundan dalolat beradiki, banklar raqamli transformatsiya va global raqobat sharoitida inson kapitali ahamiyatini anglagan holda o‘z xodimlarini rivojlantirishga salmoqli mablag‘ yo‘naltirishni davom ettirmoqda.

2020-yilda xodimlarning ish jarayoniga jalb etilishi darajasi 55,0% ni, texnologiyalarni joriy etish – 20,0% ni, innovatsiyalar o‘sishi – 10,0% ni, o‘qitilgan xodimlar ulushi – 30% ni, xodimlar qoniqish darajasi esa 60,0% ni tashkil etgan (4-rasm).



4-rasm. Bank ekotizimida inson kapitalini va innovatsiyalarni rivojlantirish dinamikasi²².

2023-yilda ham o‘sish tendensiyasi saqlandi: xodimlarning ishtirok darajasi 70,0% gacha ko‘tarildi, texnologiyalarni joriy etish 60,0% ni tashkil etdi, innovatsiyalar o‘sishi 45,0% darajasida qoldi, o‘qitilgan xodimlar ulushi esa 50,0% gacha tiklandi. Xodimlar qoniqish darajasi ham 70,0% gacha oshdi.

2024-yil uchun yanada ijobiy manzarani namoyon etmoqda: xodimlarning ish

²¹ Muallif tomonidan quyidagi manbalar asosida tuzilgan: 2023 Global Human Capital Trends. [Электрон ресурс]. – Манба: <https://www2.deloitte.com/global/en/insights/topics/human-capital/global-human-capital-trends/2023.html> ва McKinsey & Company. The Global Banking Annual Review 2023. [Электрон ресурс]. – Манба: <https://www.mckinsey.com/industries/financial-services/our-insights/global-banking-annual-review-2023>

²² Муаллиф томонидан қўйидаги манба асосида тузилган: Report "The Role of Human Capital in the Banking Ecosystem," based on data from the Deloitte Global Human Capital Trends Report. – [Electronic resource] // Deloitte, 2023.

jarayoniga jalg etilishi 80,0% gacha, texnologiyalarni joriy etish 75,0% gacha, innovatsiyalar o'sishi 55,0% gacha, o'qitilgan xodimlar ulushi 70,0% gacha va xodimlar qoniqish darajasi 80,0% gacha etishi kutilmoqda.

Raqamlashtirish bank sohasida mehnat munosabatlarini o'zgartirmoqda. Sun'iy intellekt va avtomatlashtirishning joriy etilishi past malakali lavozimlar uchun talabni kamaytirar ekan, kiberxavfsizlik, ma'lumotlar tahlili va raqamli platformalarni boshqarish sohalaridagi mutaxassislarga talabni oshirmoqda.

Ish bilan bandlik shakllari ham moslashuvchan bo'lmoqda: masofaviy ishslash va erkin ish grafiklari xodimlarga ish va shaxsiy hayot o'rtasidagi muvozanatni yaxshiroq ta'minlash imkonini beradi. Raqamlashtirish mehnat munosabatlarida ochiqlik va tenglikni rag'batlantiradi, bu esa jarayonlarni yanada shaffof va natijaga yo'naltirilgan qiladi.

3-jadval

Bank ekotizimida mehnat munosabatlariga raqamli texnologiyalarning ta'siri²³

Olimlar	Asosiy g'oyalar	Mehnat munosabatlariga ta'siri
Karl Frey va Maykl Osborn	Avtomatlashtirishning mehnat bozoriga ta'sirini o'rganish	Past malakali ish o'rinlarining kamayishi
Syuzan Lund	Raqamlashtirish va ish bilan bandlikning yangi modellari	Loyiha asosida ishslash va ish vaqtidagi moslashuvchanlikning ortishi
Tomas Xellman	Banklarda sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalari	Tashkiliy modellar va boshqaruv ko'nikmalaridagi o'zgarishlar

Raqamli transformatsiya bank sohasida inson kapitaliga ta'sir ko'rsatmoqda. Xodimlarning raqamli ko'nikmalarini rivojlantirish va innovatsiyalardagi moslashuvchanlikni oshirish kabi muhim jihatlar o'rtacha darajada ijobjiy natijalarni namoyon etmoqda. Xodimlarning raqamli ko'nikmalarini yaxshilash aksariyat tashkilotlar uchun ustuvor yo'nalishga aylangan – 57,0% kompaniyalar bu borada o'rta darajada rivojga erishganini, 21,0% esa sezilarli natijalarga erishganini qayd etmoqda. Bu holat tashkilotlar raqamli sharoitlarga moslashish uchun inson kapitaliga investitsiya kiritish zarurligini angloyotganini ko'rsatadi.


Bundan tashqari, raqobatbardoshlikni saqlab qolish uchun zarur bo'lgan innovatsiyalardagi moslashuvchanlik ham faol rivojlanmoqda. Garchi faqat 19% kompaniyalar bu yo'nalishda katta yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, 56,0% tashkilotlar o'rtacha darajada ijobjiy natijalarga erishgan. Bu esa xodimlarni doimiy o'qitish va qayta tayyorlashning ahamiyatini yanada ta'kidlaydi, chunki bu ularga yangi raqamli vositalar va jarayonlarga moslashish imkonini beradi (5-rasm).

Kelgusi o'n yillik davomida banklarning biznes-modellariga bo'lgan yondashuvlardagi o'zgarishlar inson kapitali ushbu o'zgarishlarga moslashuvda qanday asosiy o'rinni tutishi bilan bog'liqdir. 2022-yilda banklarning ko'pchiligi (60,0%) barcha mijoz segmentlari bilan raqamli aloqalarga asoslangan universal

²³ Muallif tomonidan tadqiqot asosida tuzilgan.

biznes-modeldan foydalangan. Ammo 2030-yilga kelib bu ko'rsatkich 42,0% gacha pasayishi kutilmoxda, bu esa bozor talablariga javoban biznes-modellarning diversifikatsiyasiga ishora qiladi.

Sun'iy intellekt (SI) va avtomatlashtirish banklarda kadrlar boshqaruviga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Rutin vazifalarni avtomatlashtirish xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirish imkonini beradi, SI esa kadrlarni tanlash, ish faoliyatini baholash hamda kasbiy o'sish trayektoriyalarini bashorat qilishda foydalaniladi.




5-rasm. Oxirgi bir yilda raqamli transformatsiyadagi taraq qiyot²⁴.

Big Data (katta ma'lumotlar) ish jarayonlarini tahlil qilishda muhim o'ren tutadi, bu esa banklarga xodimlar uchun shaxsiylashtirilgan rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish va o'quv jarayonlarini optimallashtirish imkonini beradi. Prediktiv tahlilni qo'llash kadrlar boshqaruvini yaxshilaydi, bashoratlarning aniqligini oshiradi va tavakkalchiliklarni kamaytiradi.

McKinsey ma'lumotlariga ko'ra, SI va avtomatlashtirishdan foydalanish banklarda ish unumдорligini oshirishi va har yili 200–340\$ milliard qo'shimcha qiymat yaratishi mumkin. Bu operatsiyalarni bajarishni tezlashtirish, kadrlar xarajatlarini kamaytirish va xizmatlar sifati, jumladan, rutin vazifalarni avtomatlashtirish hamda mijozlar bilan ishslashda intellektual yechimlarni joriy etish orqali oshirish imkoniyatlari bilan bog'liq. SIni markazlashgan holda joriy etgan banklarning taxminan 70,0% i SIga oid ish keyslarini amaliyotga joriy etishni boshlab ulgurgan, bu esa detsentralizovan yondashuvlarga nisbatan natijalarga tezroq erishish imkonini beradi.

²⁴ Muallif tomonidan Digital Banking Report ma'lumotlari asosida tuzilgan.



6-rasm. O‘zbekiston tijorat banklarida inson kapitalini boshqarishga sun’iy intellekt, avtomatlashtirish va Big Dataning ta’sir dinamikasi²⁵.

Sun’iy intellekt (SI), avtomatlashtirish va katta ma’lumotlar tahlilini (Big Data) inson kapitalini boshqarishga joriy etish O‘zbekistondagi yirik tijorat banklari – Uzumbank, Kapitalbank, Ipotekabank, Xalq banki va boshqa yetakchi banklar faoliyatiga salmoqli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu texnologiyalar bank ish faoliyati samaradorligini oshirish va kadrlar boshqaruvgiga bo‘lgan yondashuvni tubdan transformatsiya qilish uchun yangi imkoniyatlar ochib bermoqda.


Sun’iy intellekt va avtomatlashtirish ish jarayonlarini optimallashtirish va xodimlar mehnat unumдорligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Masalan, Ipotekabank va Kapitalbank kredit arizalarini qayta ishlash, mijoz murojaatlarini boshqarish va tranzaksiyalarni monitoring qilish kabi rutin vazifalarni bajarish uchun avtomatlashtirilgan tizimlarni faol joriy etmoqda. Bunday tizimlar kam malaka talab qiladigan vazifalar uchun inson resurslariga bo‘lgan ehtiyojni kamaytirar ekan, xodimlarga qaror qabul qilish va strategik fikrflashni talab etuvchi murakkab vazifalarga ko‘proq e’tibor qaratish imkonini yaratadi. Banklar baholashicha, ushbu texnologiyalarni joriy etish natijasida operatsion xarajatlar 20,0% gacha kamaygan va bu milliardlab so‘mlarni tejash imkonini bergen.

Uzumbank, Kapitalbank, Ipotekabank va Xalq banki kabi O‘zbekiston banklari uchun generativ SI va avtomatlashtirishni joriy etish inson kapitalini boshqarishni optimallashtirish va operatsiyalarning umumiyligi samaradorligini oshirishda katta imkoniyatlar yaratmoqda. O‘zbek banklari xalqaro tajribani bosqichma-bosqich o‘zlashtirib, o‘zlarining ichki tuzilmalari va ehtiyojlariga mos keladigan modellarni tanlamoqdalar.

Generativ sun’iy intellektni inson resurslarini boshqarishga joriy etishning asosiy afzalliklaridan biri – kadrlarni tanlash, o‘qitish va rivojlantirish jarayonlarini optimallashtirishdir. O‘zbek banklari xalqaro namuna orqali ushbu jarayonlarni

²⁵ Муаллиф томонидан Digital Banking Report маълумотлари асосида тузилган.

yaxshilash maqsadida avtomatlashtirishni amaliyotga joriy etmoqdalar. Masalan, Kapitalbank xodimlarning ko‘nikmalarini tahlil qilish va ta’lim ehtiyojlarini bashorat qilish uchun SI asosidagi tizimni joriy etdi. Bu esa personal xarajatlarni 12,0% gacha qisqartirish va nomzodlarni tanlashda aniqlikni 18,0% gacha oshirish imkonini berdi.



7-rasm. O‘zbekiston tijorat banklarida sun’iy intellektni joriy etish dinamikasi²⁶.

Uzumbank va Xalq Bank ham ishga qabul qilish arizalarini ko‘rib chiqish va ichki jarayonlarni boshqarish kabi rutin vazifalarni avtomatlashtirish uchun sun’iy intellektni faol joriy etmoqda. Ushbu texnologiyalar yordamida banklar ishga qabul qilish muddatini 25,0% ga qisqartirish va kadrlarni saqlab qolish darajasini 15,0% ga yaxshilashga erishdilar. Bu banklarga nafaqat operatsion xarajatlarni kamaytirish, balki iqtidorlarni rivojlantirish va o‘qitish kabi strategik tashabbuslarga e’tibor qaratish imkonini berdi.

Bank tizimining raqamlashtirilishi inson kapitalini boshqarishga bo‘lgan yondashuvni o‘zgartirmoqda va banklardan yangi texnologiyalar hamda moslashuvchan bandlik modellarini joriy etishni talab qilmoqda. Avtomatlashtirish va sun’iy intellekt banklarga ichki jarayonlarni optimallashtirish, samaradorlikni oshirish hamda xarajatlarni qisqartirishda yordam beradi. Raqamli transformatsiyaning muvaffaqiyati esa banklar o‘z tuzilmalarini qanchalik tez moslashtira olishi va xodimlarni yangi ko‘nikmalarga qay darajada o‘rgata olishiga bog‘liq bo‘ladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobo raqamli transformatsiya sharoitida inson kapitalini boshqarishning innovatsion modellariga qaratilgan. Inson kapitali bank muassasalari uchun strategik resurs sifatida qaraladi, ayniqsa, sun’iy intellekt, Big Data (katta ma’lumotlar) va robotlashtirilgan avtomatlashtirish (RPA) kabi texnologiyalar joriy etilayotgan sharoitda. Bu texnologiyalar mehnat tabiatiga ta’sir qilib, xodimlardan yangi raqamli kompetensiyalarni egallashni talab qilmoqda.

Saint-Onge modelining inson kapitalini boshqarishdagi ahamiyati shundaki,

²⁶ O‘zbekiston tijorat banklari (Uzumbank, Kapitalbank, Ipotekabank, Xalq Bank)ning ichki tahliliy ma’lumotlari va hisobotlari asosida tuzilgan.

u intellektual, tashkiliy va mijoz kapitali o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ta’kidlaydi, bu esa banklar barqarorligi va raqobatbardoshligining o‘sishiga xizmat qiladi. Inson kapitalidan samarali foydalanish, ayniqsa tezkor raqamlashtirish sharoitida, banklar daromaddorligiga ham ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi.

Turli ko‘nikmalarga bo‘lgan umumiy talab ko‘lamiga kelsak, 2024-yilda bank sektoridagi barcha lavozimlar uchun murakkab muammolarni hal qilish asosiy ko‘nikmalardan biri bo‘lishi kutilgan, shuningdek texnik ko‘nikmalar va kognitiv (fikriy) qobiliyatlarga bo‘lgan talab ham ortishi rejalashtirilgan. Moliyaviy muassasalar soni ortib borayotgani sababli, bank sektorida kuzatilayotgan tendensiyalar asosida yangi lavozimlar uchun xodimlar izlash ehtiyoji oshib borishi kutilmoqda (8-rasm).

Zamonaviy bank ekotizimi raqamlashtirish ta’sirida keng qamrovli o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda, bu esa personalni boshqarish va xodimlar ko‘nikmalariga bo‘lgan yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqishni talab etmoqda. Texnologiyalarning ortib borayotgan integratsiyasi va raqamli yechimlar yaratish zarurati sharoitida banklar yangi iqtidorlarni izlash, jamoalar o‘rtasida samarali o‘zaro aloqalarni ta’minlash hamda uzlusiz ta’limni tashkil etish ehtiyojiga duch kelmoqda.

Ushbu tadqiqotda holatlar soni cheklangan bo‘lgan sharoitda tahlil vazifalarini hal etish uchun sifatli qiyosiy tahlil (QCA) usuli qo‘llanildi, ya’ni miqdoriy va sifatli metodlar birgalikda qo‘llanilib, tadqiqot natijalari bo‘yicha aniqroq xulosalarga kelish imkonini yaratildi.

	<ul style="list-style-type: none">Kiberxavfsizlik bo‘yicha mutaxassis;Katta ma’lumotlar muhandisi, ma’lumotlar bo‘yicha olim.
	<ul style="list-style-type: none">Mobil ilovalar ishlab chiquvchisi (frontend/backend/to‘liq siklli ishlab chiquvchi);Mijozlar yo‘li bo‘yicha ekspert, mahsulotlar dizayni bo‘yicha mutaxassis.
	<ul style="list-style-type: none">Raqamlashtirish bo‘yicha mutaxassis;Onlayn-qidiruv bo‘yicha mutaxassis.
	<ul style="list-style-type: none">Foydalanuvchi tajribasi bo‘limi rahbari;Xavf-xatarlarni boshqarish bo‘yicha mutaxassis;Normativ talablarga rioya etish (compliance) bo‘yicha mutaxassis.

8-rasm. Raqamli davrda bank sohasida talab yuqori bo‘lgan asosiy kasblar²⁷.

²⁷ Muallif tomonidan tadqiqot asosida ishlab chiqilgan. Ushbu jadval ustunlarining ma’nolari:
YEDUUZ: Ta’lim (Education) – bankda xodimlarni tayyorlash va o‘qitish darajasi.
FLEXUZ: Moslashuvchanlik (Flexibility) – masofaviy ishlash yoki vaqtincha ish kabi moslashuvchan ish usullarining mavjudligi.
LMPUZ: Mehnat bozori siyosati (Labor Market policy) – bankda mehnat munosabatlari va bandlikni tartibga solishga qaratilgan siyosat.
TEMICYCUZ: Vaqtincha sikllar (Temporary cyclic) – bank faoliyatiga ta’sir qiluvchi iqtisodiy yoki texnologik sikllar.
OUT: Natija (Outcome) – turli tashabbuslarni amalga oshirishda erishilgan muvaffaqiyat bahosi.
n: Kuzatuvlar soni.
incl: Qamrov (Inclusion) – kuzatuvlarni muvaffaqiyatli amaliyotlar toifasiga kirish foizi.

Kutilgan natijaga erishish uchun tahliliy zaruriyat kerak. Bunday zaruriyat mumkin bo‘lмаган шартларни аниqlashга qaratilgan bo‘lib, yetarlilik tahlili esa ushbu natijaga kafolatli erishishni ta’minlaydigan shartlar majmuasini аниqlash imkonini beradi. Quyida keltirilgan 4-jadvalda yoshni boshqarish va avlodlararo hamjihatlik tamoyillariga asoslangan kadrlar boshqaruvi amaliyotiga banklarda turli omillar qanday ijobjiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatishini ifodalovchi haqiqat jadvali keltirilgan.

4-jadval

**Yoshni boshqarish va avlodlararo hamjihatlikka asoslangan kadrlar
boshqaruvi amaliyotini ijobjiy va salbiy qabul qilishga ta’sir etuvchi omillarni
tushuntiruvchi haqiqat jadvali²⁸**

EDUUZ	FLEXUZ	LMPUZ	TEMCYCUZ	OUT	n	incl	Banklar
1	1	1	1	1	5	1.00	Uzumbank (Uzum Bank)
0	1	1	0	1	3	1.00	Ipak Yo‘li Banki (Ipak Yuli Bank)
1	1	0	1	1	2	1.00	Trastbank (Trastbank)
0	1	1	1	1	1	1.00	Anor Bank (Anor Bank)
0	0	1	1	1	2	1.00	Kapitalbank (Kapitalbank)

5-jadval

**O‘zbekiston banklari xodimlari bo‘yicha mustaqil o‘zgaruvchilarini аниqlash
va kalibrovka²⁹**

KOD	Mustaqil o‘zgaruvchilar yoki shartlar	Kalibrovka
TECHUZ	1 – O‘zbekiston bank sektorida texnologiyalar ta’sirini qabul qilish	Texnologiyalar O‘zbekiston bank sektorida ish joylaridagi o‘zgarishlarning asosiy omili sifatida [1] = Ha; [0] = Yo‘q
DIGUZ	2 – raqamli ko‘nikmalar ahamiyatini qabul qilish	Quyidagi raqamli ko‘nikmalar ahamiyati: ma’lumotlar tahlili; dasturiy ta’milot yaratish; raqamli marketing va ijtimoiy tarmoqlar; raqamli AKT [1] = Muhim/juda muhim; [0] = Befarq/Muhim emas
JOBSUBUZ	3 – banklarda ish joylarini avtomatlashtirish/almashtirishga nisbatan munosabat	Quyidagi lavozimlar almashtirilishiga munosabat: bek-ofis xodimlari; buxgalterlar; ipoteka bo‘yicha maslahatchilar; moliya menejerlari [1] = Ha; [0] = Yo‘q
MULTUZ	4 – bank xodimlari uchun ko‘p vazifalilikning zarurligini qabul qilish	Xodimlar bir vaqtning o‘zida bir nechta vazifani bajaradi [1] = Ha; [0] = Yo‘q
SOFTUZ	5 – bank xodimlari uchun “soft skill” ko‘nikmalarining ahamiyati	Quyidagi barcha “soft skill” ko‘nikmalar ahamiyati [1] = Muhim; [0] = Muhim emas
INVAYUZ	6 – banklarda yangi ish usullarini joriy etish	[1] = Mentor yoki avlodlararo guruh yordamida; [0] = Boshqa usul

QCA (Sifatlari qiyosiy tahlil) yoshni boshqarish va avlodlararo hamjihatlikka asoslangan amaliyotlarni ijobjiy va salbiy qabul qilishga ta’sir etuvchi omillarni tavsiflaydi. Zarurlik tahlilidan olingan natijalar shuni aniq ko‘rsatadiki, texnologiyalar (TECH), ko‘p vazifalilik (MULT) va “soft skill ” ko‘nikmalari

²⁸ Muallif tomonidan tadqiqot asosida ishlab chiqilgan.

²⁹ Muallif tomonidan tadqiqot asosida ishlab chiqilgan.

(SOFT) – kutilgan natijaga erishish uchun zarur shartlar hisoblanadi. Shu bilan birga, yetarlilik tahlili raqamli ko‘nikmalar (DIG) va ish o‘rinlarini Avtomatlashtirishning mavjud emasligi (JOBSUB) kabi omillarni natijaga erishish uchun yetarli shartlar sifatida belgilaydi. Ushbu natijalar shuni tasdiqlaydiki, qayta tayyorlash, malaka oshirish va kadrlarni qayta taqsimlashni o‘z ichiga olgan HR amaliyotlar banking 4.0 davridagi murakkab chaqiriqlarni yumshatishda samarali yechim hisoblanadi.

O‘zbekiston bank sektoridagi o‘zgarishlar bo‘yicha prognostik baholarga ko‘ra, ustuvor yo‘nalish sifatida ayrim lavozimlar uchun maxsus ko‘nikmalarni (masalan, mijozlarga masofaviy xizmat ko‘rsatish bo‘yicha maslahatchilar uchun ko‘nikmalar) va turli sohalarda talab etiladigan umumiy kompetensiyalarni (masalan, moslashuvchanlik va raqamli savodxonlik) rivojlantirish hisoblanadi. O‘z raqobatbardoshligini saqlab qolish uchun O‘zbekiston banklari kadrlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo‘yicha parallel jarayonlarni faol joriy etishi lozim. Yangi ko‘nikmalarni o‘zlashtirish xodimlarga ularni mavjud lavozimlarda (malaka oshirish), shuningdek? yangi lavozimlarda (qayta tayyorlash) samarali qo‘llash imkonini beradi (6-jadval).

6-jadval

O‘zbekiston bank ekotizimida raqamlashtirish sharoitida kadrlar bilan boshqaruv instrumentlari va chora-tadbirlari³⁰


Kadrlar bilan boshqaruv yo‘nalishlari	Qo‘llanilayotgan instrumentlar va amaliy chora-tadbirlar
Malaka oshirish va qayta tayyorlash	<p>O‘zbekistonda moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirishga oid prognozlar asosida tanlab olingan tanqidiy ko‘nikmalar va rollar</p> <p>Bank tizimida raqamlashtirish joriy etilayotganini hisobga olgan holda xodimlar kompetensiyalarini doimiy monitoring qilish</p> <p>Mijozlarga xizmat ko‘rsatish talablarini hisobga olgan holda xodimlarni rivojlantirish ehtiyojlarini muntazam monitoring qilish</p> <p>Teng imkoniyatlar tamoyilini qo‘llab-quvvatlash maqsadida ta’limga kirishda yosh, jins yoki ozchiliklarga oid cheklavlarning mavjud emasligi</p> <p>Raqamli to‘lov tizimlari va milliy elektron valyutani samarali integratsiya qilish uchun kompetensiyalarni boshqarish</p> <p>Inklyuziv xizmatlar yaratish uchun yosh va jinsiy jihatdan turli jamoalar bilan ish tashkil etish</p> <p>Raqamli kreditlar kabi yangi moliyaviy mahsulotlar va innovatsiyalar bo‘yicha bilim almashinuvini rag‘batlantirish</p> <p>YOshlarni raqamli iqtisodiyot sharoitida rahbarlik lavozimlariga tayyorlash uchun “aks” mentorlik (obratnoe nastavnichestvo)</p> <p>Raqamli ko‘nikmalar va moliyaviy inklyuzivlik bo‘yicha o‘quv dasturlarida ishtiokni rag‘batlantirish</p> <p>Mahalliy bank infratuzilmasi sharoitida xodimlarning individual kasbiy yo‘nalishlariga moslashtirilgan ta’lim</p> <p>O‘zbekistonning chekka va qishloq hududlaridagi xodimlar uchun o‘quv usullari, joyi va vaqtiga moslashish</p> <p>Banklarda kadrlar salohiyatini rivojlantirish uchun mas’ul bo‘lgan shaxslarni yangi texnologiyalarni joriy etishga yo‘naltirilgan o‘qitish</p> <p>Moliya sektorida xotin-qizlar va ozchiliklarni qo‘llab-quvvatlovchi inklyuziv ta’lim madaniyatini shakllantirish</p> <p>Moliyaviy texnologiyalar bilan ishlaydigan mutaxassislarni tayyorlashga yo‘naltirilgan iqtidorlar boshqaruvi</p>
Qayta taqsimlash	<p>Raqamlashtirish tendensiyalari va raqamli moliyaviy xizmatlarni joriy etish bo‘yicha milliy dasturlarni hisobga olish</p> <p>Aholi o‘rtasida moliyaviy savodxonlikni oshirish dasturlarini qo‘llab-quvvatlash uchun banklarda ish tashkil qilish</p>

³⁰ Muallif tomonidan tadqiqot asosida ishlab chiqilgan.

	<p>Milliy xususiyatlar va bozor ehtiyojlarini hisobga olgan holda karyerani boshqarish bo'yicha eng yaxshi amaliyotlarni joriy etish</p> <p>Xodimlarning kasbiy intilishlarini aniqlash va ularni karyera rejalashtirishda hisobga olish</p> <p>Bank xodimlarining karyera yo'lini mahalliy va hududiy darajadagi ish xususiyatlariga moslashtirish</p> <p>Xodimlarga mahalliy reallikkarni hisobga olgan holda karyera rejasi tuzishda maslahatchilardan foydalanish</p> <p>Xodimlarni lavozimga ko'tarish to'g'risidagi qarorlarni ularning kompetensiyasi va innovatsiyalarni joriy etish qibiliyatni asosida qabul qilish</p> <p>Raqamli moliyaviy xizmatlar va mobil banking sohasidagi karyera imkoniyatlari to'g'risida xodimlarni xabardor qilish</p> <p>Masofaviy ishga o'tishni o'z ichiga olgan ish takliflarini xodimlarga moslashtirish</p> <p>Raqamli texnologiyalarga yo'naltirilgan bank xizmatlarini targ'ib qilish uchun imij reklama usullaridan foydalanish</p> <p>Yosh avlodni jaib qilish maqsadida OAV va ijtimoiy tarmoqlarda bo'sh ish o'rinnari haqida e'londar joylashtirish</p> <p>Raqamli transformatsiya sharoitida ish va shaxsiy hayot muvozanatini ta'minlash uchun xodimlar farovonligi bo'yicha audit va dasturlar</p>
--	---

Xususan, kiberxavfsizlik bo'yicha mutaxassislar, katta ma'lumotlar muhan-dislari, mobil dasturchilar va raqamlashtirish sohasi mutaxassislar kabi lavozimlar tobora talabgor bo'lib bormoqda. Kutilmoqdaki, bu lavozimlarni asosan Y va Z avlodlarining vakillari egallaydi. Bu xodimlar «raqamli aborigenlar» sifatida yangi texnologiyalarni tez o'zlashtiradi va bank jarayonlariga innovatsiya kiritish qobiliyatiga ega, holbuki katta yoshdag'i avlodlarga raqamli o'zgarishlarga moslashish uchun ko'proq vaqt kerak bo'ladi.

Sun'iy intellektdan iqtidorlarni boshqarishda foydalanish, jumladan, kadrlar tanlovi, nomzodlarni baholash va kasbiy o'sishni bashorat qilish jarayonlarini avtomatlashtirish – O'zbekiston banklari uchun katta afzalliklar keltirishi mumkin. Biroq bu yechimlarni joriy etishda texnologik tayyorlik darajasi, ichki boshqaruv tizimlari bilan uyg'unligi va mehnat bozoridagi tashqi talablar bilan muvofiqligi ham hisobga olinishi juda muhimdir.




9-rasm. O'zbekiston bank ekotizimida iqtidorlarni boshqarishga sun'iy intellektni integratsiya qilish bo'yicha taklif etilayotgan konseptual tuzilma³¹.

³¹ Muallif tomonidan tadqiqot asosida ishlab chiqilgan.

9-rasmda mavjud ilmiy adabiyotlar asosida shakllangan konsepsiya namoyon etilgan bo‘lib, u O‘zbekiston bank ekotizimida iqtidorlар boshqaruviga qaratilgan innovatsion yechim prototipini ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu prototip – tizim talablarini intellektual yechim modeliga transformatsiya qilishga yo‘naltirilgan innovatsion yondashuv bo‘lib, kelgusidagi foydalanuvchilarga tizim foydasi va natijalarini ko‘rsatish imkonini beradi. Prototipni loyihalash jarayonida banklardagi amaldagi HR jarayonlaridagi muammolar tahlili va ularni bartaraf etishga qaratilgan yechimni artefakt ko‘rinishida yaratish nazarda tutiladi.

O‘zbekiston banklarida iqtidorlarni boshqarish kontekstida minimal hayotiy mahsulot (MVP – Minimum Viable Product)ni ishlab chiqish uchun uchta asosiy bosqich taklif etilmoqda. Bu bosqichlar quyidagi xizmatlarni qamrab oladi: iqtidorlarni bazasini yaratish, nomzodlarning shaxsiy va kasbiy sifatlarini baholash, kasbiy yo‘nalish bo‘yicha maslahat beradigan chat-botlar, kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, rezyumelarni avtomatik skrining qilishga mo‘ljallangan dasturiy ta’milot, suhbat modellashtirish va bo‘sish o‘rinlarini nomzodlar bilan muvofiqlashtirish.

10 rasmda taklif etilayotgan tuzilma aks ettirilgan bo‘lib, unda chiqish ma’lumotlari (iqtidorlarni boshqarish uchun II asosidagi yechim) kirish ma’lumotlari (sonli ma’lumotlar) asosida shakllantiriladi. Ma’lumotlarni oldindan qayta ishlash, jumladan tozalash va integratsiya qilish jarayonlaridan so‘ng ma’lumotlar mashq va test to‘plamlariga bo‘linadi. Bu esa sun’iy intellekt modelini samarali o‘qitish va keyinchalik HR jarayonlarida qo‘llash imkonini yaratadi.



10-rasm. O‘zbekiston banki ekotizimida iqtidorlarni boshqarish uchun taklif etilgan sun’iy intellekt (SI) tuzilmasi³².

Dastlabki modelni yaratish ma’lumotlar tahlili usullari – vizualizatsiya, prognozlash va qonuniyatlarni aniqlash – orqali amalga oshiriladi. Shundan so‘ng

³² Muallif tomonidan tadqiqot asosida ishlab chiqilgan.

modelning ishonchliligi tekshiriladi va u aniq ifodalangan, amaliyotda foydalanish uchun yaroqli shaklga keltiriladi. Bunday model O‘zbekiston banklariga xodimlarning kasbiy o‘sishini bashorat qilish, kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni rejalashtirish va kadr salohiyatini rivojlantirishga oid strategik qarorlar qabul qilishda yordam beradi.

Sun’iy intellekt asosidagi prognozlash iqtidorlarni boshqarishda aniq va asosli yechimlarni ta’minlaydi, bu esa O‘zbekiston banklariga nafaqat ishga qabul qilish jarayonini yaxshilash, balki xodimlar rivojini samarali qo’llab-quvvatlash, ularning kasbiy ko‘nikmalarini oshirish va asosiy kadrlarni saqlab qolish imkonini ham beradi.

Keyinchalik sun’iy intellekt (SI) algoritmi O‘zbekiston banklaridagi HR-tizimlaridan yig‘ilgan real ma’lumotlar asosida sinovdan o’tkaziladi va nomzodlarni tanlash hamda prognozlashda uning samaradorligi aniqlanadi. Ushbu SI algoritmining O‘zbekiston banklarida inson resurslarini boshqarish jarayonlariga ta’siri baholanadi va bu orqali iste’dodlarni boshqarishni yaxshilash va bank muassasalarining raqobatbardoshligini oshirishdagi foydaliligi to‘g‘risida xulosalar chiqariladi.

Inson kapitali bilan boshqaruvning raqamli platformasi modeli O‘zbekistonning bank ekotizimida moliyaviy sektorning xususiyatlari va raqamli transformatsiyaning hozirgi chaqiriqlarini hisobga olgan holda muvaffaqiyatlmoslashtirilgan. Ushbu modelni joriy etish to‘rtta asosiy yo‘nalish bo‘yicha amalga oshiriladi, va har biri raqamli muhit sharoitida xodimlar samaradorligi va ish unumdoorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi:


1. Raqamli ko‘nikmalar va bilimlar. O‘zbekiston bank tizimida onlayn-banking, mobil ilovalar va katta ma’lumotlarni qayta ishlash tizimlari kabi yangi raqamli yechimlar bilan ishlash uchun xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash faol ravishda olib borilmoqda. Xodimlarni raqamli texnologiyalarga o‘qitish muhim tarkibiy qism bo‘lib, banklarga yangi chaqiriqlarga moslashish va bozorda raqobatbardoshligini saqlash imkonini beradi.

2. Raqamli ish jarayoni. Bank ekotizimi ish jarayonlarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanishga o‘ta boshladi. Loyihalarni boshqarish uchun elektron platformalarni joriy etish, “narsalar interneti” (IoT) asosidagi yechimlarni integratsiya qilish va ichki jarayonlarni avtomatlashtirish xodimlar va mijozlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqani yaxshilashga yordam beradi. Masalan, ayrim banklar xodimlar shaxsiy samaradorligini boshqarish va operatsiyalarni optimallashtirish uchun Saas-ilovalardan faol foydalanmoqda.

3. Inson resurslarini boshqarish. Model, shuningdek, O‘zbekiston bank sektori ehtiyojlariga moslashtirilgan raqamli inson kapitali boshqaruvi strategiyasini o‘z ichiga oladi. Bu xodimlar uchun individual karyera rivojlanish trayektoriyalarini yaratish, ishslashning moslashuvchan modellarini joriy etish va departamentlar o‘rtasida raqamli platformalar orqali o‘zaro hamkorlikni kuchaytirishni o‘z ichiga oladi. Xodimlarning raqamli maydonda shaxsiy brendini shakllantirish banklarning muvaffaqiyatli raqamli transformatsiyasining muhim elementiga aylanmoqda.

4. Raqamli texnologiyalar. Oblako texnologiyalari, avtonom boshqaruv tizimlari va Web 2.0 platformalar ayrim O‘zbekiston banklarida faol ravishda joriy

etilmoqda. Ushbu texnologiyalar operatsiya jarayonlarining samaradorligini oshirish va mijozlarga ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilashga yordam beradi. Asosiy elementlar sifatida ish jarayonlarini avtomatlashtirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda katta ma'lumotlar tahlilidan foydalanish va samaradorlikni oshirish uchun interaktiv tarmoqlarni yaratish ko'rsatilmoqda.



11-rasm. O'zbekiston banki ekotizimida inson resurslarini boshqarish bo'yicha raqamli platforma³³.

Bank tashkilotlarining raqamlashtirish jarayoni muvaffaqiyatlari kechishi uchun ularning tashkiliy tuzilmasi yangi talablarga mos ravishda qayta shakllantirilishi lozim. AKT bo'limlari, inson resurslari (HR) va biznes bo'limlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik raqamli platformalarni samarali joriy etishda muhim omilga aylanmoqda. Masalan, bulutli texnologiyalar, avtonom boshqaruv tizimlari va Web 2.0 yechimlaridan foydalanish orqali ish jarayonlarini optimallashtirish va xodimlar, mijozlar hamda hamkorlar o'rtasidagi aloqalarini yaxshilash mumkin.

³³ Muallif tomonidan tadqiqot asosida ishlab chiqilgan.

Natijada, O‘zbekiston bank ekotizimida inson kapitali boshqaruvi bo‘yicha raqamli platforma modeli faol joriy etilmoqda. Bu esa raqamli davr chaqiriqlariga moslashish, raqobatbardoshlikni oshirish va inson resurslarini samarali boshqarishning barqaror tizimlarini yaratish imkonini beradi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida raqamli transformatsiya sharoitida bank ekotizimida inson kapitalini rivojlantirishga oid muhim xulosalar qilindi. Inson kapitali bank muassasalari barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta’minlashda asosiy omilga aylandi. Xodimlarning ta’limi va kasbiy rivojlanishiga qaratilgan investitsiyalar ularning innovatsiyalarni joriy etish va mehnat unumdarligini oshirish qobiliyatiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Bank sohasida raqamlashtirish va sun’iy intellektni joriy etish xodimlar malakasiga bo‘lgan talablarni tubdan o‘zgartirmoqda. Yangi texnologiyalar ma’lumotlar bilan ishslash, innovatsiyalar boshqaruvi va jarayonlarni avtomatlashtirish ko‘nikmalarini talab qilmoqda. Bu o‘zgarishlarga samarali moslashish uchun banklar xodimlarini qayta tayyorlash va raqamli vositalar bilan ishslash bo‘yicha o‘qitishga sarmoya kiritishlari zarur.

Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida inson kapitalini boshqarish banklar uchun strategik ustuvor yo‘nalishga aylanmoqda. Hozirgi sharoitda yuqori malakali kadrlarni saqlab qolish bo‘yicha dasturlarni rivojlantirish juda muhim, chunki intellektual resurslarning migratsiyasi bank sektori taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Inson resurslarini samarali boshqarish va zamonaviy usullarni joriy etish banklarda innovatsionlik va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari bank tizimida raqamli transformatsiyaning ahamiyatini ko‘rsatdi. Bu jarayon avtomatlashtirish, sun’iy intellekt va blokcheyn kabi moliyaviy texnologiyalarni joriy etishni o‘z ichiga oladi. Ushbu texnologiyalar bank xizmatlarining sifati va operatsiyaviy samaradorligini oshiradi, shu bilan birga inson kapitalini rivojlantirishga katta sarmoya talab qiladi.

Demak, banklarning raqamlashtirish sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi faqat inson kapitalini tizimli rivojlantirish sharti bilan amalga oshishi mumkin. Xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, shuningdek, personalni boshqarishda ilg‘or texnologiyalarni joriy etish vazifalari dolzarbligicha qolmoqda. Bu banklarning barqaror o‘sishi va global bozorda raqobatbardoshligini ta’minlashga xizmat qiladi.

XULOSA

O‘zbekistondagi bank ekotizimining raqamli transformatsiyasi inson kapitali boshqaruviga sifat jihatidan yangi talablarni shakllantirmoqda. Moliyaviy texnologiyalar, raqamli platformalar va sun’iy intellekt jadal joriy etilayotgan sharoitda kadrlar bilan ishlashning an’anaviy modellari o‘z ahamiyatini yo‘qotmoqda. O‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, raqamlashtirish nafaqat bank xizmatlarini ko‘rsatish formatiga ta’sir ko‘rsatmoqda, balki xodimlardan mutlaqo yangi kompetensiyalar, avvalo raqamli savodxonlik, katta ma’lumotlar bilan ishslash ko‘nikmalari, moslashuvchan tafakkur, texnologik o‘zgarishlarga tez moslasha olish qobiliyati va ko‘p avlodli jamoalarda samarali ishslash salohiyatini talab qilmoqda.

Tadqiqotning asosiy xulosalaridan biri – inson kapitali raqamli iqtisodiyotning strategik resursi sifatida e’tirof etilganidir. Shu nuqtayi nazardan, uzuksiz ta’lim (lifelong learning) tamoyiliga asoslangan kasbiy rivojlanish tizimlari, shaxsiylashtirilgan o‘quv trayektoriyalari va zamonaviy texnologiyalarni HR amaliyotiga integratsiya qilish alohida ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston banklari misolida olib borilgan tahlil natijalari, malaka oshirish vositalarini joriy etish, kadrlarni qayta taqsimlash modellarini moslashtirish hamda xodimlarning yoshi, jinsi yoki yashash joyidan qat’i nazar, ularga teng imkoniyatlar yaratish bo‘yicha ijobjiy dinamikani namoyon etdi.

Shuningdek, banklar raqamlashuvining muvaffaqiyatli amalgaga oshirilishi tashkilot tuzilmasining mukammal modernizatsiyasisiz mumkin emasligi aniqlandi. Bu jarayonda IT bo‘limlari, kadrlar bo‘limi (HR) va biznes-yunitlar o‘rtasida samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bunday hamkorlik personalni raqamli muhitga moslashtirish bo‘yicha strategik yondashuvlarni shakllantirish, raqamli jarayonlarni tizimlashtirish va mijozlar hamda xodimlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni takomillashtirish imkonini beradi. Oblako texnologiyalari, Saas-platformalar, Web 2.0, chat-botlar, prognozlash-tiruvchi tahlillar va sun’iy intellekt algoritmlari inson resurslarini boshqarishda intellektual tizimlar asosini tashkil etadi.

Tadqiqotda taklif etilgan inson kapitalini boshqarishga oid raqamli platforma konsepsiysi to‘rtta asosiy yo‘nalishni qamrab oladi: raqamli ko‘nikmalar va bilimlarni rivojlantirish, raqamli ish jarayonlarini joriy etish, kadrlar bilan strategik boshqaruvni tashkil qilish va HR siklda raqamli texnologiyalardan faol foydalanish. Har bir yo‘nalish bir-biri bilan uзвiy bog‘langan bo‘lib, bank sohasida moslashuvchan, innovatsion va inklyuziv kadrlar boshqaruvi modelini shakllantirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston bank tizimida raqamli transformatsiya sharoitida inson kapitalini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida bir qator amaliy tavsiyalar taklif etiladi.

Birinchidan, barcha darajalarda – asosiy raqamli kompetensiyalardan tortib, kiberxavfsizlik, dasturiy ta’minot yaratish, ma’lumotlar tahlili va raqamli marketing kabi ixtisoslashgan ko‘nikmalargacha – xodimlarni raqamli o‘qitishga investitsiyalarni kuchaytirish zarur.

Ikkinchidan, moliya sektori uchun kadrlarni raqamli tayyorlash bo‘yicha milliy strategiyani ishlab chiqish kerak. Bu strategiya davlat-xususiy sheriklik

asosida grant dasturlari, eng yaxshi tajribalarni almashish uchun platformalar yaratishni o‘z ichiga olishi lozim.

Uchinchidan, ishga qabul qilish jarayonini optimallashtirish, yashirin iste’dodlarni aniqlash, xodimlarning o‘sish salohiyatini baholash va shaxsiylashtirilgan o‘qitishni tashkil etish imkonini beradigan sun’iy intellektga asoslangan raqamli baholash va kasbiy o‘sishni bashorat qilish tizimlarini joriy etish tavsiya etiladi. To‘rtinchidan, iste’dodlarni boshqarishga oid raqamli platformalardan foydalanishni kengaytirish maqsadga muvofiq – bu xodimlarni tanlash jarayonlarini avtomatlashtirish, raqamli profillarni shakllantirish va ularning kasbiy rivojlanishini muntazam monitoring qilishni nazarda tutadi.

Yakuniy tavsiya sifatida, inson kapitalining barqaror raqamli transformatsiyasi uchun inklyuziv va etikaga tayanadigan korporativ madaniyatni rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu ta’lim va kasbiy o‘sish imkoniyatlariga teng huquqli etishishni ta’minalash, hududiy va yoshga oid farqlarni inobatga olish, masofaviy ishni o‘z ichiga olgan holda moslashuvchan ish usullarini qo’llab-quvvatlash, shuningdek, avlodlar va bo‘limlar o‘rtasida ishonchli muhitni shakllantirishni o‘z ichiga oladi.

Shu bilan, O‘zbekiston bank ekotizimida inson kapitalini rivojlantirish faqat raqamli transformatsiyani tizimli amalga oshirish, innovatsion texnologiyalarni integratsiya qilish va HR boshqaruvida strategik yechimlarni qo’llash orqali samarali bo‘ladi. Faqat shundagina banklar o‘z samaradorligi va barqarorligini oshirib, milliy iqtisodiyotning innovatsion o‘sishida yetakchi kuchga aylanishi mumkin.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.22/30.12.2019.I.100.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ФИЛИАЛЕ
РОССИЙСКОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА
им. Г.В.ПЛЕХАНОВА**

**ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ РОССИЙСКОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО
УНИВЕРСИТЕТА им. Г.В.ПЛЕХАНОВА**

ИСМАИЛОВ САРДОР САМИДУЛЛАЕВИЧ

**ТРАНСФОРМАЦИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В
БАНКОВСКОЙ ЭКОСИСТЕМЕ В УСЛОВИЯХ
ЦИФРОВИЗАЦИИ**

08.00.10 – Демография. Экономика труда

АВТОРЕФЕРАТ
на соискание ученой степени доктора философии (PhD)
по экономическим наукам

Ташкент – 2025

Тема диссертации на соискание степени доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером В2025.3.PhD/Iqt6255.

Диссертация выполнена в Ташкентском Филиале Российского экономического университета имени Г.В. Плеханова.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещён на веб-сайте Научного совета (www.reu.uz) и на Информационно-научном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: **Абдурахманов Каландар Ходжаевич**
академик Академии Наук Республики Узбекистан

Официальные оппоненты: **Худайбердиев Зайниддин Явкачевич**
доктор экономических наук, профессор

Рахматуллаева Шахноза Хамидовна
доктор философии по экономическим наукам
(PhD), доцент

Ведущая организация: **Ташкентский государственный технический университет имени Ислама Каримова**

Защита диссертации состоится « » 2025 года в часов на заседании Научного совета DSc.22/30.12.2019.I.100.01 по присуждению ученых степеней при Ташкентском Филиале РЭУ им. Г.В. Плеханова. Адрес: 100164, Республика Узбекистан, г.Ташкент, Мирзо Улугбекский район, массив Ялангач, улица Шахриобод, дом 3 Тел.: (99871) 262-43-50; факс: (99871) 262-43-60; e-mail: info@reu.uz

С диссертацией (PhD) можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского Филиала РЭУ им. Г.В. Плеханова (зарегистрирован за №). Адрес: 100164, Республика Узбекистан, г.Ташкент, Мирзо Улугбекский район, массив Ялангач, улица Шахриобод, дом 3. Тел.: (99871) 262-43-50; факс: (99871) 262-43-60; e-mail: info@reu.uz

Автореферат диссертации разослан « » 2025 года.
(реестр протокола рассылки № от « » 2025 года.)

Усманов А.С.

Заместитель председателя Научного совета по присуждению ученой степени, доктор экономических наук, профессор

Шакаров З.Г.

Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор философии по экономическим наукам (PhD), доцент

Худойбердиев З.Я.

Председатель Научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, доктор экономических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В условиях стремительного развития цифровых и технологий искусственного интеллекта во всём мире человеческий капитал становится ключевым фактором устойчивого экономического роста. В связи с этим эффективная трансформация данного капитала в банковскую экосистему приобретает всё более важное значение. Согласно отчёту Deloitte, «в целях обеспечения эффективной деятельности компаний по всему миру, а также адаптации сотрудников к стремительно меняющимся экономическим условиям и созданию рабочих мест, особое внимание уделяется подготовке работников к взаимодействию с новыми технологиями, включая искусственный интеллект, большие данные и другие цифровые инструменты, при этом расходы на развитие человеческого капитала значительно увеличиваются. По результатам опроса более 10 000 бизнес-лидеров из 105 стран мира, цифровизация в настоящее время рассматривается как приоритетная задача».³⁴

Человеческий капитал как стратегический ресурс банковского сектора оказывает непосредственное влияние на конкурентоспособность и устойчивость банков, поэтому в настоящее время в глобальной повестке одной из актуальных проблем рассматривается именно эффективная трансформация человеческого капитала в банковскую экосистему. В рамках современных научных исследований, направленных на развитие банковской сферы, особое внимание уделяется вопросам трансформации человеческого капитала в условиях цифровизации. В частности, актуальными являются следующие направления исследований: совершенствование методологии оценки влияния цифровой трансформации банковской экосистемы на банковскую инфраструктуру, управление трудовыми ресурсами и качество банковских услуг; разработка эффективных моделей взаимоотношений между банковскими сотрудниками и работодателями в условиях цифровизации; совершенствование методик оценки влияния цифровых технологий на структуру занятости, трудовые отношения и профессиональные навыки; выработка эффективных стратегий, подходов и механизмов управления человеческим капиталом в условиях цифровизации; обоснование действенных механизмов подготовки и переподготовки кадров, развития цифровых компетенций и навыков адаптации к быстро меняющимся рыночным условиям.

В Узбекистане осуществляются масштабные меры по коренному реформированию и модернизации банковской системы, цифровой трансформации банковской экосистемы и развитию цифровой управленческой инфраструктуры, развитию человеческого капитала в условиях цифровизации, снижению доли государства в банковском секторе, широкому внедрению дистанционных банковских услуг и развитию небанковских

³⁴ Deloitte. 2023 Global Human Capital Trends [Elektron resurs] //Deloitte Insights. – 2023. – URL: <https://www2.deloitte.com/content/dam/Deloitte/us/Documents/human-capital/us-deloitte-2023-hc-trends-information.pdf>

